

O'zbekiston: Hukumat qatliom uchun 10 yildan beri javob bermaydi

Andijon voqeasiga bag'ishlangan video BMTni chora ko'rishga undaydi

(Jeneva) – AQSh va Yevropa Ittifoqi Andijon qatliomining 10 yilligi munosabati bilan O'zbekistondagi huquqbazarlik holatlariga e'tibor qaratib, fojia yuzasidan hukumatni javobgarlikka chaqirishi lozim, deyiladi "Human Rights Watch" bugun taqdim etgan videoda.

2005-yilning 13-mayida O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi Andijon shahrida davlat kuchlari markaziy xiyobonga yig'ilgan minglab tinch namoyishchilarga qarata o't o'chgan. Omma qashshoqlik, ishsizlik va repressiyadan norozi bo'lib, hukumatdan uning dardini tinglashni so'rab ko'chaga chiqqan edi.

"O'zbekiston xalqi hamon qo'rqinchda yashaydi", - deydi [Stiv Sverdlov](#), "Human Rights Watch" tashkilotining Markaziy Osiyo bo'yicha mutaxassisi. "Odamlar gapirsa nishonga olinishi va o'ldirilishi mumkinligini biladi va shunday bo'lган taqdirda hech kim javobgarlikka tutilmaydi".

O'sha kuni ertalab qurollangan guruh 23 mahalliy tadbirkorni qamoqdan ozod etib, hukumat binolarini egallab olgan. Tadbirkorlar "diniy ekstremizm" da ayblangan edi. Minglab odamlar shahar markaziga yig'ilar ekan, zirhli mashinalardagi kuchlar va snayperlar olomonni ota boshlagan. Haloyiq qocha olmagan chunki yo'llar yopiq bo'lgan. Yuzlab insonlar halok bo'lgan. Harbiylar maydonda yaralanib yotgan odamlarni birma-bir qatl etgani ma'lum.

Videoda andijonlik huquq himoyachisi Lutfullo Shamsuddinov hukumat kuchlari o'qdan qochishga uringan fuqarolarni nishonga olganini tasvirlab beradi. "Qochish mumkin emas edi", - deydi u. "Hayqiriqlar, ayniqsa ayollarning ovozi... "Otmang, otmang" degan iltijolar. Qatliom yarim soatcha davom etgan. Yarim soat-a! Askarlar ularga qarshi hech kim o'q uzmayotganini ko'rib turgan edi".

Qo'shinlar yuzlab odamni o'ldirganiga qaramay hukumat voqeada atigi 187 kishi halok bo'lgan deb keladi. Toshkentga ko'ra, o'lganlardan 60 nafari namoyishchilar, qolganlar esa xavfsizlik kuchlari bo'lgan.

Toshkentda asoslangan "Ezgulik" inson huquqlari jamiyatni rahbari Vasila Inoyatova aytishicha, Andijon fojiasi ketidan juda ko'plab xonadonlarda motam tutilgan. O'zbekistonda aza bor joyda darvozaning oldida kursi qo'yib o'tirishadi. Ko'chalarda bu kursilarning oxiri ko'rinas edi", - deya eslaydi u.

Qatliom ketidan O'zbekiston hukumati mustaqil tekshiruv o'tkazish haqidagi chaqiriqlarga qulq solmadi va bu kunni o'z manfaatlari yo'lida noto'g'ri ta'riflab, shavqatsizlikka qarshi gapirganlarni tazyiqqa olib jazolashga zo'r berdi.

Javobgarlik talab qilgan odam nishonga olinadi. Namoyishlarda qatnashgani gumon qilingan fuqarolar hisbga olinadi, qiynoqqa solinadi, sudlanadi va qamaladi. Faqat guvohlarga emas, ularning yaqinlariga nisbatan ham shunday munosabatda bo'lishadi. Chet elga chiqib ketganlarning qarindoshlariga bosim o'tkazish orqali hukumat o'z maqsadiga erishishga harakat qiladi. Odamlar oilasi uchun xorijdan qaytishga majbur bo'ladi.

O'tgan 10 yil ichida O'zbekiston yanada yopiq jamiyatga aylandi. Bir necha huquq faollari va jurnalistlar qamaldi yoki vatanni tark etdi. Hukumat mustaqil axborot vositalari, xalqaro huquq himoyachilari va nohukumat tashkilotlarni haydadi.

2015-yilning boshida "Human Rights Watch" ko'plab o'zbeklar bilan muloqot qildi. Ularning aksariyati xorijda va qatlom haqida ochiq gapirishga jur'at etmadi. Chunki hukumat ularning vatandagi yaqinlarini bosim ostiga oladi. Bu insonlarning oilalari O'zbekistonda so'roq qilinadi va hatto chet elga qochgan yaqinlari terrorist deya xatlar yozishsga majburlanadi.

O'zini Nasiba deb tanishtirgan andijonlik ayol yaqindan beri xorijda. Undan oldin har oy eri qayerda ekani haqida so'roq qilingan. Turmush o'rtoq'i 10 yil oldingi namoyishlarda qatnashganman deya iqroq bo'lmasa, bu ayol fohishalikka majburlanadi deya qo'rqtitgan.

Nasibaning hikoya qilishicha, farzandlar maktabda uyaltirilgan va bosim tinmagach oila ketishga qaror qilgan. Ayolning bir necha erkak qarindoshi Andijon voqealarida ayblanib qamalgan. Biri yolg'on va'dalar asosida vatanga qaytgach hibsga olingan. Bu odam panjara ortida 20 kun o'tirib vafot etgan. Jasadga qarab shunday xulosa qilinganki, u qiynoqqa solingan, xususan yuzi va barmoqlariga qattiq jarohatlarning izi bo'lgan.

"Qochib ketsang, baribir tutamiz va qamoqda chirisan, umring o'sha yerda o'tadi, deb qo'rqtishdi", - deydi Nasiba "Human Rights Watch" videosida. "Shu qadar qo'rqqanimdan hech kimga aytmaganman. 2014-yilga kelib boshqa chiday olmadim", - deydi Nasiba, vatanni nega tark etganini tushuntirar ekan.

AQSh va Yevropa Ittifoqi O'zbekiston Afg'onistonga qo'shni ekani sabab u bilan harbiy hamkorlik qildi, lekin Andijon voqealarini ketidan hukumatga sanksiyalar joriy etdi. Biroq ular keyinroq olib tashlandi va G'arb mamlakatdagi inson huquqlari bilan bog'liq og'ir ahvolga nisbatan keskin gapirmay qo'ydi.

AQSh va Yevropa Ittifoqi O'zbekitonda huquq ahvoli yaxshilanishini talab qilib, konkret shartlar qo'yishi kerak. Aks holda hamkorlik cheklanadi, chora ko'rildi deya tushuntirilishi lozim. Rasmiylarga viza bermaslik, ularning G'arbdagi mulkclarini muzlatish shular jumlasidan. Qiynoqlar, siyosiy mahbuslarning jazo muddatini asossiz uzaytirish, diniy huquqlarni buzish va majburiy mehnatga aloqador mutasaddilar sanksiya bilan yuzlashsin, deya chaqirmaqda "Human Rights Watch".

BMT Inson huquqlari kengashi a'zolari, jumladan Amerika va Yevropa Ittifoqi davlatlari, O'zbekistondagi og'ir vaziyatga befarq emasligini isbotlab, O'zbekistonni xalqaro talablarni bajarishga chorlasin. BMT qoshida bu mamlakat bilan shug'ullanuvchi maxsus organ tuzilsin.

"BMTda O'zbekiston bo'yicha maxsus vakil bo'lsin va bu ekspert O'zbekistondagi holat xususida hisobot berib, mas'uliyat va javobgarlik ta'minlanishi uchun xizmat qilsin, toki xalq bilsinki, Andijon qatlomi va boshqa jinoyatlar unutilmaydi. Dunyo ularga befarq emas", - deydi Sverdlov.